



LOYIHA

“ARAB ADABIYOTI TARIXI ANTOLOGIYASI”

- Fan yo‘nalishi:** filologiya
Ilmiy-texnik kengashlar yo‘nalishiga mos ravishda
- Loyiha turi:** amaliy-innovatsion
amaliy, innovatsion, fundamental
- Loyiha rahbari:** dotsent A.M.Ikromjonov
FISh, ilmiy darajasi va unvoni

Loyiha bajarilayotgan tashkilot yuridik manzili:
Olmazor tumani, Noraztepa ko‘chasi, 52A

Loyiha nomi:	Loyiha raqami (shifri): 60230100 70230104	
	Fan yo'nalishi: filologiya	
Loyiha rahbarining familiyasi, ismi, sharifi: Ikromjonov Akmaljon Maxmudjonovich	Loyiha rahbarining telefon raqami: +998901398198	
	elektron pochta akmaljon.ikromjonov@gmail.com	manzili: STIR (INN) raqami: 453 005 864
Ijrochi tashkilotning to'liq va qisqartirilgan nomi: Oriental universiteti, Tillar-1 kafedrası		
	Loyihani amalga oshirish davri (yili):	2026-yil mart 2027-yil mart
	1. f.f.d., professor Rustamiy S.	
	2. f.f.d., professor Muxiddinova D.	
	2. f.f.f.d., dotsent Rahmatova G.	
	3. f.f.f.d., dotsent Djurayeva F.	
	4. f.f.f.d., dotsent Turdiyev J.	
	5. dotsent v.b. Sotvoldiyev S.	
	6. katta o'qituvchi Talipov N.	
	7. katta o'qituvchi Yakubova F.	
	8. katta o'qituvchi Mirsadikov U.	
	9. katta o'qituvchi Xasanov I.	
	10. katta o'qituvchi Musayev F.	
	11. katta o'qituvchi Isamutdinov A.	
	12. o'qituvchi Abdullayev D.	
<i>(loyiha rahbari ushbu ro'yxatda ko'rsatilmaydi)</i>		
Loyiha rahbarining imzosi: _____		
Tashkilot rahbari: N.A.Mamataxunov		

**Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasining "Arab adabiyoti tarixi antologiyasi"
mavzusi doirasida amalga oshiriladigan amaliy va innovatsion loyiha bo'yicha**

ASOSNOMA

1. Tanlovga tavsiya etilayotgan mavzu nomi

"Arab adabiyoti tarixi antologiyasi"

2. Ilmiy loyiha mavzusi tashabbuskori
(ilmiy tashkilot nomi)

Tillar-1 kafedrası

3. Taklif etilayotgan mavzu doirasida ilgari bajarilgan/bajarilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar natijalari tahlili

Mavzusi taklif etilayotgan mavzuga doir grand asosidagi loyiha bajarilmagan. Arab adabiyoti tarixining turli davrlariga oid ma'lumotlar o'quv qo'llanma va darsliklarga qisman kiritilgan, lekin ensiklopedik miqyosdagi loyihalar mavjud emas.
Taklif etilayotgan loyiha mazkur holatni

4. Qo'lga kiritilishi kutilayotgan yakuniy natija (mahsulot, ishlanma, texnologiya)ning tavsifi

inobatga olgan holda, ilgari amalga oshirilgan ishlarni takrorlamaydi, balki ularni to'ldiradi va yangi bosqichga olib chiqadi. Loyiha doirasida arab adabiyoti tarixining boshlang'ich davri – Johiliya davri adabiyoti ilk bor o'zbek tilida antologik tamoyil asosida, ilmiy tahlil va izohlar bilan birga yoritilishi ko'zda tutiladi. Shu jihatdan loyiha fundamental va innovatsion xarakterga ega bo'lib, mavjud tadqiqotlar doirasini kengaytiradi va yangi ilmiy-amaliy natijalarni taqdim etadi.

Loyiha doirasida arab adabiyoti tarixini tizimli va davriy asosda yorituvchi "Arab adabiyoti tarixi antologiyasi" nomli ko'p jildli ilmiy nashr tayyorlanishi rejalashtiriladi. Loyihaning birinchi jildi Johiliya davri arab adabiyotiga bag'ishlanib, unda mazkur davrda ijod qilgan mashhur va kam o'rganilgan shoirlarning asarlaridan tanlangan namunalar kiritiladi.

Mazkur jild doirasida Misr, Suriya, Iroq, Saudiya Arabistoni, Iordaniya, Falastin, Jazoir, Quvayt, Qatar va Ummon kabi arab mamlakatlari adabiy maktablarida shakllangan Johiliya davri adabiy merosi namunalarining arab tilidagi asl matnlari ilmiy manbalar asosida tanlanadi va o'zbek tiliga tarjima qilinadi. Har bir adabiy namuna tarixiy-adabiy kontekstda yoritilib, muallif, davr xususiyatlari va badiiy janrga oid qisqa ilmiy izohlar bilan ta'minlanadi.

To'plangan, tarjima qilingan va tahlil qilingan materiallar asosida Johiliya davri arab adabiyotining badiiy, janriy va g'oyaviy xususiyatlarini aks ettiruvchi antologik nashr yaratiladi. Ushbu mahsulot oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, arabshunoslik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan ilmiy-ma'rifiy manba sifatida foydalanishga tavsiya etiladi.

5. Ehtiyoj (talab)ning mavjudligi (yetarliligi) to'g'risida tahliliy ko'rsatkichlar

Bugungi kunda mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, o'zbek kitobxonini jahon adabiyoti durdonalari bilan tizimli ravishda tanishtirish davlat miqyosidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Sharq xalqlari adabiy merosini, jumladan, arab adabiyotining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini mukammal va ilmiy asosda yorituvchi manbalarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Hozirgi vaqtda o'zbek tilida arab adabiyoti tarixini izchil, davrlar kesimida va antologik

tamoyil asosida yoritib beruvchi ko'p jildli fundamental nashrlar mavjud emas. Ayniqsa, arab adabiyotining eng qadimgi va poydevor bosqichi hisoblangan Johiliya davri adabiyotiga oid badiiy matnlarning tanlangan namunalarini ilmiy izohlar bilan birga o'zbek tilida taqdim etish masalasi yetarli darajada hal etilmagan.

Mazkur loyiha doirasida tayyorlanishi rejalashtirilayotgan "Arab adabiyoti tarixi antologiyasi" nomli ko'p jildli nashrning birinchi jildi Johiliya davri arab adabiyotiga bag'ishlanadi. Ushbu jildda mazkur davrning mashhur shoirlari, adabiy janrlari va badiiy tafakkurini aks ettiruvchi namunalarning ilmiy asoslangan tanlovi, o'zbek tiliga tarjimalari hamda zarur tarixiy-adabiy izohlar berilishi ko'zda tutiladi.

6. Yaratiladigan yangi ishlanma (mahsulot, texnologiya)ning xorijiy/mavjud analoglaridan qiyosiy ustunligini ko'rsatuvchi indikatorlar

Yangi ishlanmaning xorijiy yoki mahalliy analoglari, o'zbek adabiyotshunosligida Yevropa va Sharq adabiyotidan namunalarning tarjimalari.

7. Yaratiladigan yangi ishlanma (texnologiya) asosida mahsulot/xizmat ishlab chiqarishning resurs/xomashyo bazasining va zarur infratuzilmasining mavjudligi

Taklif etilayotgan loyihani amalga oshirish uchun respublikamizning oliy malakali sharqshunos, arabshunos olimlarini jalb etish rejalashtirilgan. Ularning barchasi ilmiy darajalarga, xalqaro reytingga va ulkan tajribaga ega bo'lgan mutaxassis olimlardir. Loyiha jamoasining ma'naviy, madaniy, intellektual saviyasi asosiy zarur infratuzilmani tashkil etadi.

Tillar-1 kafedrasini mudiri:

S.Rustamiy

Filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishi menejeri:

B.Mamataxunov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar Bo'yicha prorektor:

M.Nasirova

Rektor:

N.Mamataxunov